

FALSAFADA METOD VA METODOLOGIYA

Sherxanov Sultonmurod Davronboy o'g'li

Turan International University o'qituvchisi
sultonmurodsherxanov@gmail.com

Abduvahobova Hilola Usmonjon qizi

Turan International University talabasi
hilola02@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada falsafada metod va metodologiya tushunchalari keng yoritilgan. Unda insonning olamni anglash jarayoni, bilimlarning amaliyot asosida shakllanishi va rivojlanishi tushuntiriladi. Shuningdek, falsafiy tafakkur, uning qonun-qoidalari va usullari orqali borliqdagi narsa va hodisalarni chuqur anglash mumkinligi bayon etiladi. Maqolada ilmiy bilish usullari bilan falsafiy yondashuv o'rtasidagi farqlar ham ko'rsatilib, dialektik tafakkurning ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Falsafa, metod, metodologiya, falsafiy tafakkur, bilish jarayoni, olamni anglash, ilmiy bilish, amaliyot, Dialektika, Qonun-qoidalar, Tafakkur usullari, narsa va hodisalar, Ob'yektiv va sub'yektiv olam, taraqqiyot qonunlari.

АННОТАЦИЯ

Данный статье в широком смысле охватывает понятия метода и методологии в философии. В нем объясняется процесс человеческого понимания мира, формирование и развитие знаний на основе практики. Также объясняется, что посредством философского мышления, его законов, правил и методов можно глубоко понять вещи и явления, существующие в мире. В статье также показаны различия между научными методами познания и философским подходом, подчеркивается важность диалектического мышления.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Философия, Метод, Методология, Философское мышление, Процесс познания, Понимание Вселенной, Научные знания, Упражняться, Дialektika, Законы и постановления, Способы мышления, Вещи и события.

ABSTRACT

In this article, the concepts of method and methodology in philosophy are widely covered. It explains the process of human understanding of the world, formation and development of knowledge based on practice. It is also stated that through philosophical thinking, its laws and methods, it is possible to gain a deep

understanding of things and events in existence. The article also shows the differences between the scientific methods of knowledge and the philosophical approach, and emphasizes the importance of dialectical thinking.

KEYWORD: *Philosophy, Method. Methodology, Philosophical thinking, Process of cognition, Understanding the world, Scientific knowledge, Practice, Dialectics, Laws and principles, Methods of thinking, Objects and phenomena, Objective and subjective world, Laws of development.*

KIRISH

Falsafa — bu insoniyatning eng qadimiy va fundamental fanlaridan biri bo‘lib, u borliq, tafakkur va bilish jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Inson doimo atrofidagi olamni anglashga, uning sir-asrorlarini ochishga va hayotdagi o‘rnini belgilashga intilib kelgan. Bunday murakkab jarayon esa tartibsiz emas, balki muayyan usullar, yondashuvlar va tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Shu bois falsafada metod va metodologiya tushunchalari alohida o‘rin egallaydi.

Metod — bu insonning borliqni o‘rganish, tushunish va o‘zgartirish jarayonida qo‘llaydigan usullar tizimidir. U bilish faoliyatining yo‘nalishini belgilaydi va natijaning to‘g‘riligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Metodologiya esa metodlar haqidagi ta’limot bo‘lib, u turli ilmiy va falsafiy metodlarni tizimlashtiradi, ularning samaradorligini tahlil qiladi hamda qaysi sharoitda qanday metodni qo‘llash lozimligini aniqlab beradi. Falsafada metod va metodologiya masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki har qanday ilmiy tadqiqot yoki kundalik faoliyat ma’lum bir metodga asoslanadi. To‘g‘ri tanlangan metod haqiqatga yaqinlashishga yordam bersa, noto‘g‘ri metod esa xatolik va noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli metodologik yondashuv ilmiy bilishning asosi hisoblanadi. Falsafiy metodlar orasida dialektik va metafizik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Dialektik metod borliqni o‘zgarishda, rivojlanishda va o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishni taqozo etsa, metafizik metod narsa va hodisalarni ko‘proq o‘zgarmas holatda tahlil qiladi. Bu esa borliqni turlicha tushunishga olib keladi.

MUHOKAMA

Falsafada metod va metodologiya masalasi insonning bilish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki har qanday bilim ma’lum bir metod asosida shakllanadi. Agar metod to‘g‘ri tanlansa, inson borliqni chuqur va haqqoniy anglaydi, aks holda esa noto‘g‘ri xulosalarga kelishi mumkin. Shu bois metodni tanlash va uni ilmiy asosda qo‘llash falsafaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Metod — bu bilishning yo‘li, usuli va vositasi bo‘lib, u insonni haqiqatga olib boruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, kuzatish, tajriba, tahlil va sintez kabi usullar ilmiy bilishda keng qo‘llaniladi. Bu metodlar orqali inson narsa va hodisalarning tashqi va ichki xususiyatlarini o‘rganadi, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni

aniqlaydi. Shu bilan birga, falsafiy metodlar umumiyroq bo‘lib, ular borliqning eng umumiy qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Metodologiya esa metodlar tizimini o‘rganadi va ularni tartibga soladi. U nafaqat mavjud metodlarni tahlil qiladi, balki yangi metodlarni ishlab chiqishga ham yordam beradi. Metodologiya orqali ilmiy bilish jarayoni izchil va tizimli ravishda amalga oshiriladi. Ayniqsa, zamonaviy fan taraqqiyotida metodologiyaning o‘rni yanada ortib bormoqda, chunki murakkab muammolarni hal etishda turli fanlararo yondashuvlar talab etiladi. Falsafada eng muhim metodlardan biri — dialektik metod hisoblanadi. Unga ko‘ra, borliq doimiy harakatda, o‘zgarishda va rivojlanishda bo‘ladi. Narsa va hodisalar o‘zaro bog‘liq va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, jamiyat taraqqiyoti qarama-qarshiliklar kurashi orqali yuz beradi, yangi bosqich eski bosqichni inkor etish orqali shakllanadi. Bu yondashuv borliqni dinamik holatda tushunishga imkon beradi. Bunga qarama-qarshi ravishda metafizik metod mavjud bo‘lib, u narsa va hodisalarni ko‘proq o‘zgarmas, alohida va mustaqil holda o‘rganadi. Bu metod ayrim hollarda sodda va aniq tahlil qilishga yordam bersa-da, murakkab jarayonlarni to‘liq tushuntirib bera olmaydi. Shu sababli zamonaviy falsafada dialektik yondashuv ustunlik qiladi. Shuningdek, metodologiya ilmiy tadqiqotlarda aniqlik, izchillik va mantiqiylikni ta’minlaydi. Har bir fan o‘ziga xos metodlarga ega bo‘lsa-da, ularning barchasi umumiy falsafiy metodologiyaga tayanadi. Bu esa fanlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi va bilimlarning yaxlit tizimini yaratadi. Muhokama yuritilayotgan narsaning moddiy asosini hisobga olmaydigan mavhum tushunchalardan iborat sofistik tafakkurdan farqli o‘laroq, metafizik tafakkur, asosan, narsalar bilan fikr yuritadi. Mana shu ma’noda tafakkurning metafizik uslubi sofistik tafakkurni inkor etadi. Ilmiy bilishning asosiy maqsadi tabiatdagi narsa va hodisalar mohiyatini bilishdan iborat. Shuning uchun ham narsalarni o‘rganishda metafizik usul dastlab tabiatshunoslik zaminida tarkib topa boshlagan Sofistik tafakkurga qarshi o‘laroq vujudga kelgan metafizik usul fan rivojlanishi tarixida o‘ziga yarasha ijobiy rol o‘ynagan Tabiatshunoslik yig‘ma, to‘plovchi fan sifatida ko‘ringan davrlarda narsalarni o‘rganish metodi bo‘lgan metafizika mavjud voqelikda alohida olingan narsalar haqidagi juda ko‘p aniq materiallarni to‘plashda olimlarga yordam berdi. Tabiatdagi aniq narsa yoki jarayonlarni bilmasdan turib, dunyoning umumiy ko‘rinishi to‘g‘risida tasavvur qilish mumkin emas. Tabiatdagi narsalarni mukammal o‘rganish, ularning mohiyatini chuqurroq ochib borishga intilish metafizik tafakkur uslubining ijobiy tomonini tashkil etadi. Uning ulkan tarixiy haqqoniyliги ham shundadir. Bu shu bilan tavsiflanadiki, metafizik tafakkur uslubidan faqat tabiatshunoslargina emas, balki XVII-XVIII asr faylasuflari ham unumli foydalanganlar. Metafizik tafakkur uslubining xususiyati shundan iboratki, tabiatdagi narsa va hodisalarni bir-biridan ajralgan va harakatsiz holda olib qaraydi. Bilish jarayoni insonsiz bo‘lishi mumkin emas. Bilish inson qobiliyati, izlanuvchanligi mantiqiy kamolot darajasi hamda uning tafakkur organi -

miyasiga bog'liq. Inson faoliyatiga xos bo'lgan bu qobiliyatnin bilishning pirovard maqsadi ijtimoiy zaruriy amaliy ehtiyojlarni qondirishdan iboratdir. Bilish taraqqiyoti fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan to'la va mukammal bilishga qarab harakat qilishidan iborat cheksiz jarayondir. Bilish jarayoni eskirib qolgan nazariyalarni yangi nazariyalar bilan almashtirish, eski nazariyalarni aniqlash, obyektning yangi-yangi tomonlarini ochishdir. Bilish murakkab ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda bilimlarimiz to'la va mukammal bo'lishi uchun ma'lum bir yo'lni bosib o'tadi. Bu yo'l bilmaslikdan bilishga o'tish yo'lidir. Bu yo'l orqali inson o'z aql va idroki bilan o'z amaliy faoliyati jarayonida voqea, olam, predmet va hodisalarni, ularning mohiyatini bilishga intiladi, izlanadi. Ilmiy bilishning bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri-ikkinchisini to'ldiradigan ikkita darajasi mavjud, ularga empirik va nazariy darajalar kiradi. Mazkur darajalarning har biri o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ular nimalardan iborat? Ilmiy bilishning empirik darajasi kishilarning ehtiyojlarini qondirish jarayonida ularning kundalik tajribalari asosida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga tayangan holda olamda ro'y berayotgan hodisalarni bilishga qaratilgan. Bundan farqli o'laroq, ilmiy bilishning nazariy darajasi ilm fan yordamida to'plangan bilimlar asosida olamdagi narsa va hodisalarning Ilmiy bilishning bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri-ikkinchisini to'ldiradigan ikkita darajasi mavjud, ularga empirik va nazariy darajalar kiradi. Mazkur darajalarning har biri o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ular nimalardan iborat? Ilmiy bilishning empirik darajasi kishilarning ehtiyojlarini qondirish jarayonida ularning kundalik tajribalari asosida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga tayangan holda olamda ro'y berayotgan hodisalarni bilishga qaratilgan.

NATIJALAR

Ushbu mavzuni o'rganish natijasida falsafada metod va metodologiyaning muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Metod insonning borliqni bilish va o'rganish jarayonida asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi, metodologiya esa ushbu metodlarni tartibga soluvchi va ilmiy jihatdan asoslab beruvchi tizim ekanligi ko'rsatildi. Shuningdek, to'g'ri tanlangan metod ilmiy bilishning samaradorligini oshirishi, noto'g'ri metod esa xatolik va noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlandi. Dialektik metod borliqni rivojlanish va o'zgarish jarayonida o'rganishda eng samarali yondashuvlardan biri ekanligi, metafizik metod esa ayrim cheklangan holatlarda qo'llanilishi mumkinligi aniqlandi. Bundan tashqari, metodologiya ilmiy tadqiqotlarning izchilligini, mantiqiyiligini va tizimlilikini ta'minlashi, turli fanlar o'rtasida bog'liqlikni mustahkamlashi ham muhim natija sifatida qayd etildi. Umuman olganda, metod va metodologiya inson tafakkurini rivojlantirishda va haqiqatni chuqur anglashda muhim o'rin tutadi. Dialektikaning narsa va hodisalarni har tomonlama va o'zaro munosabatda tahlil qilish talabi qandaydir hodisani yoki uning ayrim tomonini biryoqlama ajratib qabul qiluvchi sofistika tubdan qarama-qarshidir. Sofistlar

masalaning ikkinchi darajali tomonlarini birinchi o‘ringa qo‘yib masalaning mohiyatini u bilan o‘rab qo‘yadilar. E’tiborga olmaydigan sofistika qarshi bo‘lmasdan, balki muhton va hal qiluvchilarini ajrata olmasdan turli aloqa va munosabatian mexanik ravishda qo‘shuvchi eklektikaga ham qarshidir. Sofistika va eklektikaga zid bo‘lgan ilmiy falsafa narsa va hodisalarni tashkil qilishda hamma aloqa va vositalarni hisobga olishni talab qiladi.

XULOSA

Yangi o‘rganilayotgan metodlardan biri sinergetika dialektikaning davomi hisoblanadi. O‘tgan asrning 70- yillarida fanga kirib kelgan sinergetik tafakkur tarsi dastavval fizikaviy, ijtimoiy jarayonlardagi o‘z- o‘zini boshqarish, xaos (tartibsizlik) kabi holatlarning yo‘qolishini, qonuniyatlarini bilishga qaratilgan. Bu ta’limotni ilk bor belgiyalik fizik olim Nobel mukofotining laureati I. Prigojin, so‘ngra nemis fizigi G. Xaken va boshqa olimlar asoslaganlar. Sinergetika yunoncha so‘z bo‘lib, "o‘zaro hamkorlik, o‘zaro muvofiqlashganlikni anglatadi. Sinergetika - o‘z-o‘zini boshqarish, noxiziqli hodisalarni o‘rganish, o‘z- ozidan tashkil bo‘lish nazariyasi bo‘lib, olamni yangicha izohlashga qaratilgan, murarrablikni o‘rganadigan tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish, tafakkur uslubidir. Sinergetika - olamning o‘z-o‘zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o‘zaro aloqadorligi, ulaming muayyan tizimlardan iborat sababiy bog‘lanishlar asosida mavjudligini 'e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Taraqqiyotning evolutsion tamoyilini asos qilib oluvchi sinergetika quyidagi tushunchalar orqali namoyon bo‘ladi: 1) attractor; 2) bifurkatsiya; 3) fraktallar; 4) noxiziqlilik, nomuvozanatsizlik; 5) ochiqlik va hakoza. Sinergetika ochiq murakkab strukturalarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganuvchi, ochiq soha, shu sababli uning hozirga qadar aniqlanmagan ba’zi tushunchalari yosh olimlarimizning fan va inson borlig‘iga oid fundamental tamoyillarni kashf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilmoqda. Sinergetika bugungi sivilizasiya rivojiga xos bosh tamoyil uzluksizlik, bosqichma-bosqich rivojlanish, muvozanatsizlik kabi qonuniyatlarni asoslab berib, fan, ijtimoiy hayot rivojida o‘z isbotini topmoqda. Falsafada metod va metodologiya masalasi insonning bilish faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirishda va ilmiy tafakkurni rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu mavzuni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, har qanday bilim tasodifiy emas, balki muayyan metodlar asosida shakllanadi. Metod — bu borliqni o‘rganishning aniq yo‘li va vositasi bo‘lsa, metodologiya esa ana shu metodlarni tizimlashtirib, ularni qo‘llashning umumiy qonun-qoidalarini belgilaydi. Falsafiy metodlar, ayniqsa dialektik yondashuv, borliqdagi narsa va hodisalarni o‘zaro bog‘liqlikda, harakat va rivojlanishda o‘rganishga imkon beradi. Bu esa insonning olamni chuqur va haqqoniy anglashiga yordam beradi. Metafizik metod esa ayrim hollarda soddalashtirilgan tahlil uchun foydali bo‘lsa-da, murakkab jarayonlarni to‘liq ochib bera olmaydi. Shuningdek,

metodologiya ilmiy bilish jarayonining izchil, mantiqiy va tizimli bo‘lishini ta’minlaydi. U turli fanlar o‘rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlab, bilimlarning yagona tizim sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi. To‘g‘ri metodologik yondashuv orqali inson nafaqat yangi bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliyotda samarali qo‘llash imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, metod va metodologiya falsafaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, ular insonning tafakkurini rivojlantiradi, ilmiy bilishni chuqurlashtiradi va haqiqatni anglashga xizmat qiladi. Shu bois ularni o‘rganish har qanday ilmiy va amaliy faoliyat uchun zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev S. — Falsafa va metodologiya. Toshkent, 2018.
2. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi — o‘quv qo‘llanma.
3. Falsafa (darslik) — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.
4. A. Spirkin — Falsafa asoslari. Moskva, 1988.
5. Aleksandr Spirkin — Falsafa asoslari
6. Ilmiy ijod metodologiyasi — tadqiqot olib borish usullari